

MAKTABGACHA TA'LIMDA MUSIQA VA MILLIY AN'ANALAR ORQALI MA'NAVIYAT TARBIYASI

Ibroximova Gulnoza Sa'dullayevna

O'zbekiston Davlat San'at va Madaniyat Institutining Farg'ona mintaqaviy filiali

o'qituvchisi

E-mail: ubaydullo1317@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13926302>

Annotatsiya. Bu maqola maktabgacha ta'limda musiqa va ma'naviyat tarbiyasining o'zaro aloqasini tahlil qiladi. Musiqa bolalarning hissiy, ma'naviy va ijtimoiy rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini, shuningdek, milliy musiqa orqali bolalarning madaniy meros va axloqiy qadriyatlarni o'rganish jarayonini yoritadi. Muallif, musiqa tarbiyasining bolalarning ijodiy imkoniyatlari, shaxsiyati va ijtimoiy mas'uliyatini rivojlantirishdagi o'rnini ta'kidlaydi. Maqola musiqa va ma'naviyat tarbiyasining birligi orqali bolalar shaxsiyatining shakllanishi va ularning kelajagi uchun muhim asos yaratishini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: Maktabgacha ta'lim, musiqa tarbiyasi, ma'naviyat, ijtimoiy rivojlanish, milliy musiqa, axloqiy qadriyatlar, ijodiy imkoniyatlar, shaxsiy rivojlanish, madaniy meros, vatanparvarlik.

ДУХОВНОЕ ВОСПИТАНИЕ ЧЕРЕЗ МУЗЫКУ И НАЦИОНАЛЬНЫЕ ТРАДИЦИИ В ДОШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В статье анализируется взаимосвязь музыки и духовного воспитания в дошкольном образовании. Оно проливает свет на то, как музыка влияет на эмоциональное, духовное и социальное развитие детей, а также на процесс познания детьми культурного наследия и нравственных ценностей через национальную музыку. Автор подчеркивает роль музыкального образования в развитии творческих способностей детей, их личности и социальной ответственности. В статье показано, что единство музыки и духовного воспитания создает важную основу для формирования личности детей и их будущего.

Ключевые слова: дошкольное образование, музыкальное образование, духовность, социальное развитие, национальная музыка, нравственные ценности, творческие возможности, развитие личности, культурное наследие, патриотизм.

SPIRITUAL EDUCATION THROUGH MUSIC AND NATIONAL TRADITIONS IN PRESCHOOL EDUCATION

Abstract. The article analyzes the relationship between music and spiritual education in preschool education. It sheds light on how music influences the emotional, spiritual and social

development of children, as well as the process of children's cognition of cultural heritage and moral values through national music. The author emphasizes the role of music education in the development of children's creative abilities, their personality and social responsibility. The article shows that the unity of music and spiritual education creates an important basis for the formation of children's personality and their future.

Keywords: preschool education, music education, spirituality, social development, national music, moral values, creative opportunities, personality development, cultural heritage, patriotism.

Maktabgacha ta'lim insonning butun hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bo'lib, bola shaxsining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu davrda bola hayotiy ko'nikmalarni o'zlashtiradi, atrof-muhitni anglaydi, madaniyat va axloqiy qadriyatlar bilan tanishadi. Maktabgacha ta'limning asosiy maqsadi bolalarning ma'naviy, aqliy, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashdir. Aynan shu davrda bolaning kelajakdagi axloqiy va madaniy asoslari shakllanadi, bu esa uning keyingi hayotida jamiyatning to'laqonli a'zosi bo'lib rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Maktabgacha ta'lim jarayonida turli tarbiyaviy va ta'limiy vositalar qo'llaniladi, ularning orasida musiqa va milliy an'analar alohida o'ringa ega. Musiqa tarbiyasi, ayniqsa, milliy musiqiy merosni o'rgatish, bolalarning hissiy olamini boyitish bilan bir qatorda ularning ma'naviy rivojlanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Musiqa vositasi orqali bolalar nafaqat go'zallik va san'atni tushunishadi, balki milliy o'zlikni anglash, vatanparvarlik, insoniylik kabi tushunchalarni o'zlashtirishadi. Shu bilan birga, milliy an'analar orqali bolalarda milliy g'urur, xalqning boy tarixiy merosiga nisbatan hurmat va ehtirom hissi shakllanadi. Bugungi globallashuv sharoitida milliy ma'naviyatni, urf-odat va an'analarni saqlab qolish hamda ularni yosh avlodga yetkazish alohida ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni singdirish va bolalarda milliy madaniyatga qiziqishni uyg'otish bolalarning ma'naviy rivojlanishi va ularning milliy identifikatsiyasini shakllantirishda asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu ma'noda, musiqa va milliy an'analar orqali tarbiya berish usuli bolalarning ma'naviy dunyosini boyitishda, ularning ma'naviy-estetik qobiliyatlarini shakllantirishda eng samarali vositalardan biri hisoblanadi. Milliy musiqiy meros xalqning madaniyati va ma'naviyatining ko'zgusi bo'lib, u asrlar davomida shakllangan va bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan. Milliy musiqiy asarlar orqali bolalar xalqning o'tmishi, qadriyatlari, urf-odatlari bilan tanishadi, milliy tarbiyaning asosiy tushunchalarini anglab yetadilar. Ayniqsa, maktabgacha ta'limda xalq musiqasi bolalar ongiga chuqurroq kirib boradi, ularda milliy o'zlikni anglash hissi rivojlanadi va bu bolalar

ongida ma'naviy barqarorlikni shakllantiradi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqa va milliy an'analar asosida ma'naviy tarbiya berishning ahamiyati shundaki, bu jarayon bolalarga nafaqat madaniy merosni o'rgatadi, balki ularni estetik, axloqiy jihatdan rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Musiqa va milliy an'analar bolalarning axloqiy va madaniy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, ularning kelajakdagi ma'naviy qadriyatlar asosida shakllanishiga katta hissa qo'shadi. Shu sababli, musiqa va milliy an'analar orqali ma'naviyat tarbiyasi maktabgacha ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lishi zarur.

Maktabgacha ta'lim davri bolaning shaxsiyati va dunyoqarashi shakllanadigan eng muhim bosqichlardan biridir. Bu davrda bolaning ma'naviy rivojlanishi, uning axloqiy qadriyatlarini boyitish, ijtimoiy va madaniy moslashuvini ta'minlash ta'lim va tarbiya jarayonining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi. Ma'naviyat tarbiyasi, o'z navbatida, bola uchun kelajakdagi hayotiy yo'lni belgilab beruvchi axloqiy poydevor vazifasini bajaradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ma'naviyat tarbiyasini berish, ularni jamiyatning ongli va mas'uliyatli a'zosi sifatida shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'naviyat insonning ichki dunyosini, ma'no-mazmunli hayotiy qadriyatlarini, axloqiy tamoyillarini va ongli faoliyatini ifodalaydi. Shuningdek, u insonning atrof-muhitga, jamiyatga va boshqa odamlarga nisbatan munosabatini belgilovchi asosiy tushunchadir. Insonning ma'naviy olami uning shaxsiyati, fe'l-atvori, axloqiy qarashlari va axloq normalari bilan bog'liq bo'lib, bu tushunchalar bolaning erta yoshda shakllanadi. Shu sababli, maktabgacha ta'limda ma'naviyat tarbiyasi bola shaxsining rivojlanishi uchun muhim rol o'ynaydi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida ma'naviyat tarbiyasi bolalar ongini boyitish, ularda insoniylik, vatanparvarlik, hamjihatlik va axloqiy me'yorlar kabi tushunchalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu jarayonning maqsadi bolalarga yaxshi va yomonni ajratishni, odoq-axloq qoidalariga rioya qilishni, jamiyatga foydali va mas'uliyatli shaxs bo'lishni o'rgatishdir. Ayniqsa, ma'naviyat tarbiyasi orqali bolalar milliy urf-odatlar, qadriyatlar va an'analar bilan tanishadi, bu esa ularning milliy o'zlikni anglashiga, madaniy o'ziga xoslikni tushunishiga katta hissa qo'shadi.

Musiqa insonning hissiy va ma'naviy dunyosiga chuqur ta'sir ko'rsatadigan eng qadimiy va samarali tarbiya vositalaridan biri hisoblanadi. U nafaqat estetik zavq bag'ishlaydi, balki axloqiy va ma'naviy qadriyatlarni shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega. Maktabgacha ta'limda musiqa tarbiyasi bolalarning ma'naviy rivojlanishida asosiy o'rin tutadi, chunki bu davrda bolalar atrof-muhitni idrok qilish, his-tuyg'ularini ifodalash va axloqiy tamoyillarni o'zlashtirishni boshlaydilar. Musiqa orqali bola nafaqat estetik go'zallikni tushunadi, balki ma'naviy qadriyatlar, milliy o'zlikni anglash va ijtimoiy mas'uliyat hissini ham shakllantiradi. Musiqa bolaning hissiy rivojlanishida muhim vosita sifatida xizmat qiladi. U bola ichki dunyosini boyitib, uning

hissiyotlarini boshqarishni, his-tuyg'ularini ifodalashni o'rgatadi. Bolalar musiqa orqali hayotdagi go'zallikni ko'ra boshlaydi va bu jarayon ularning ma'naviy olamiga chuqur kirib boradi. Musiqa bolalarning ruhiy holatiga bevosita ta'sir qiladi, ularning kayfiyatini ko'taradi, ijobiy hissiyotlarni uyg'otadi. Shu bilan birga, musiqa bolaning axloqiy rivojlanishiga ham sezilarli ta'siri bor. Xalq musiqa asarlari, dostonlar, milliy qo'shiqlar orqali bolalar axloqiy tushunchalar, odob-axloq qoidalarini o'zlashtiradilar. Musiqa orqali bolalarga yaxshilik, sadoqat, mehr-oqibat, hurmat kabi axloqiy qadriyatlar singdiriladi. Milliy musiqa ma'naviyat tarbiyasining eng muhim jihatlaridan biri bo'lib, u bolalar ongiga milliy o'zlikni anglash va milliy qadriyatlarni singdirishda beqiyos rol o'ynaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar milliy musiqa bilan tanishish orqali o'z xalqining boy madaniy merosi bilan bog'liq bo'lgan an'analar va urf-odatlarni o'rganadilar. Masalan, o'zbek xalqining milliy kuy-qo'shiqlari, maqomlari va dostonlari bolalarga milliy g'urur, Vatanparvarlik va xalqning tarixiy boy merosiga nisbatan hurmat hissini uyg'otadi. Shu tariqa, milliy musiqa bolalarning nafaqat estetik didini, balki ma'naviy olamini ham shakllantiradi. Milliy musiqa tarbiyaviy roli katta. U orqali bola o'z xalqining hayoti, tarixi, madaniyati bilan tanishadi, milliy o'zlikni anglashga o'rgatiladi. Masalan, o'zbek xalq qo'shiqlari orqali bolalar ajdodlarining qadriyatlari, hayot tarzlari, e'tiqodlari bilan tanishib, bu orqali ularda milliy o'zlikni anglash, xalq madaniyatiga qiziqish va hurmat paydo bo'ladi. Bu musiqiy meros bola shaxsiyatining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, uning jamiyatdagi o'rini to'g'ri anglashiga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sadoqatli bo'lishiga yordam beradi. Musiqa axloqiy tarbiya vositasi sifatida o'rni katta. Xalq og'zaki ijodida aks etgan qo'shiqlar, dostonlar va kuylar orqali bola yaxshilik va yomonlik tushunchalarini farqlashni o'rganadi. Musiqiy asarlar ko'pincha axloqiy va ijtimoiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi, bu esa bolalar ongida muhim axloqiy qadriyatlarning shakllanishiga hissa qo'shadi. Masalan, Vatanparvarlik mavzusidagi qo'shiqlar orqali bolalar Vatanga sadoqat, xalqiga xizmat qilish, o'z xalqining boy merosini hurmat qilish kabi muhim axloqiy tamoyillarni o'zlashtiradilar. Musiqa bolalarga insoniylik, do'stlik, hamjihatlik, mehr-oqibat kabi qadriyatlarni singdiradi. Bolalar musiqani o'rganish jarayonida axloqiy-ruhiy rivojlanishga erishadilar. Masalan, kuylar orqali bolalarning yuragiga yaxshilik, mehr-oqibat, samimiylik singadi. Bu esa ularning jamiyatda insoniy munosabatlarni shakllantirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqiy asarlarda ifodalangan obrazlar va hikoyalar orqali bolalar o'z axloqiy tamoyillarini boyitadilar, ular yaxshilik qilish, o'zgalarga yordam berish, rostgo'ylik kabi muhim axloqiy tushunchalarni o'zlashtiradilar.

Musiqa faqat shaxsiy va axloqiy rivojlanish vositasi bo'lib qolmay, balki bolalarning ijtimoiy moslashuviga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Jamoaviy musiqa mashg'ulotlari bolalarni birgalikda ishlash, muloqot qilish, boshqa bolalar bilan hamjihatlikda faoliyat ko'rsatishga

o'rgatadi. Jamoaviy qo'shiq aytish, milliy raqslar ijro etish orqali bolalar muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantiradilar, ijtimoiy muhitga moslashishni o'rganadilar. Shu bilan birga, bolalar musiqa vositasida o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, stress va ziddiyatli holatlardan chiqib ketish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Maktabgacha ta'limda musiqa orqali bolalarning ijtimoiy hayotga moslashuvi osonlashadi, chunki musiqa jamoaviy faoliyatga undaydi, bolalarni birgalikda ishlashga, boshqalar bilan hamkorlik qilishga o'rgatadi. Musiqa orqali bola jamiyatda o'z o'rnini topadi, ijtimoiy qoidalarni o'zlashtiradi, boshqalar bilan aloqa qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Masalan, milliy raqslar va jamoaviy qo'shiqlar orqali bola jamoada birgalikda faoliyat ko'rsatish, hamkorlik qilish, o'z his-tuyg'ularini ifoda etish va jamiyatda faol ishtirok etishga o'rganadi. Musiqa bolaning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda ham muhim o'rin tutadi. Musiqa orqali bolalar o'z his-tuyg'ularini va fikrlarini ijodiy tarzda ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Musiqa darslarida bolalar nafaqat tayyor asarlarni o'rganadilar, balki o'z ijodiy imkoniyatlarini kashf etadilar, kuy va qo'shiqlarni ijro etish orqali yangi fikrlar yaratadilar. Shu tariqa, musiqa bolalarning ijodiy va ma'naviy rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib, ularning his-tuyg'ularini ochishga yordam beradi. Musiqa ijodi bolaning ma'naviy dunyosini boyitib, ularning estetik didini o'stiradi va ijodiy faolligini rivojlantiradi. Bolalar musiqiy asarlar orqali yangi tushunchalarni o'zlashtiradilar, bu esa ularning aqliy va ma'naviy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Musiqa ijodi orqali bolalar o'z hayotlaridagi voqealarni ifoda etish imkoniyatiga ega bo'ladilar, bu esa ularning ma'naviy olamiga chuqur kirib boradi va ijodiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Musiqa darslari va turli musiqiy tadbirlar maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning ma'naviy rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadbirlar davomida bolalar milliy kuylar, dostonlar va raqslar bilan tanishadi, ularning ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi va ma'naviy dunyolari boyiydi. Shuningdek, musiqiy tadbirlar orqali milliy qadriyatlar bolalarga o'rgatiladi va ularning milliy o'zlikni anglash jarayoni tezlashadi. Milliy musiqa va urf-odatlar asosida tashkil etilgan musiqiy tadbirlar bolalarga faqat estetik zavq bag'ishlab qolmay, balki ularning ma'naviy olamini boyitadi, milliy qadriyatlarga hurmat bilan munosabatda bo'lishni o'rgatadi. Bu kabi tadbirlar milliy an'analarni davom ettirish va avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Maktabgacha ta'limda musiqa va ma'naviyat tarbiyasining o'zaro aloqasi nafaqat bolalar shaxsiyatining rivojlanishi, balki ularning ijtimoiy va madaniy moslashuvi uchun ham juda muhimdir. Musiqa, uning axloqiy va estetik jihatlari orqali, bolalarda keng ko'lamli hissiy, ma'naviy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirishga yordam beradi. Bu jarayon bolalarning o'zligini anglashlari, o'z xalqi, madaniyati va urf-odatlariga nisbatan hurmat bilan munosabatda bo'lishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Musiqa, o'zining didaktik va tarbiyaviy

ahamiyati bilan, bolalarga hayotdagi turli vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini ifodalash imkonini beradi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun musiqa nafaqat estetik zavq manbai, balki ularning ichki dunyosi, shaxsiyati va ruhiyatini boyituvchi muhim vosita hisoblanadi. Musiqa orqali bolalar shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni o'rganadilar, o'zlarini anglab, ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topish imkoniyatini qozonadilar. Musiqiy tarbiyaning boshqa bir muhim jihati – bu uning jamoaviy faoliyatga undovchi qobiliyatidir. Jamoaviy musiqa mashg'ulotlari bolalar o'rtasida hamkorlik, do'stlik va samimiylilik hissini mustahkamlashga yordam beradi. Bunday faoliyatlar orqali bolalar bir-birlariga yordam berishni, muloqot qilishni va jamoada ishlashni o'rganadilar. Jamoaviy ijod jarayonlari bolalarning bir-biriga nisbatan hurmat, samimiylilik va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi, bu esa ijtimoiy rivojlanishlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Milliy musiqaning ahamiyati, shuningdek, bolalar uchun o'z xalqining madaniyatini, urf-odatlarini, qadriyatlarini o'rganish imkoniyatini yaratishdir. Maktabgacha ta'lim muassasalarida milliy musiqani o'rganish va ijro etish bolalar uchun nafaqat ma'naviy, balki madaniy merosni qadrlashga o'rgatadi. Ular o'z xalqi va uning tarixini, madaniyatini, urf-odatlarini bilib, o'z milliy o'zligini anglaydilar. Bu jarayon, shuningdek, bolalarda Vatanparvarlik, xalqqa hurmat va sadoqat hissini uyg'otadi. Bundan tashqari, musiqa bolalarning ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda ham ahamiyatli. Bolalar musiqiy asarlarni ijro etish jarayonida o'z his-tuyg'ularini ifoda etish, o'z tasavvurlarini yaratish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Musiqa, shuningdek, bolalarning aqliy rivojlanishiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki u bolalarning yaratuvchanlik, tasavvur va fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Musiqa va ma'naviyat tarbiyasining birligi maktabgacha ta'lim jarayonining asosiy maqsadlaridan biridir. Ularning o'zaro aloqasi orqali bolalar to'g'ri axloqiy me'yorlar, insoniylik, do'stlik va hurmat kabi qadriyatlarni o'zlashtiradilar. Musiqaning tarbiyaviy ahamiyati, shuningdek, bolalarda ijtimoiy mas'uliyat hissini ham rivojlantiradi. Ular ijtimoiy muhitda o'z o'rnini topish, jamiyatda faol ishtirok etish va o'z axloqiy mas'uliyatlarini anglash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shunday qilib, maktabgacha ta'limda musiqa va ma'naviyat tarbiyasining o'zaro aloqasi bolalarning shaxsiyati, ijtimoiy muhitga moslashuvi, madaniy merosga hurmat bilan qarashi va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon bolalarning kelajakda mas'uliyatli, axloqiy, ma'naviy boy va ijodiy shaxs bo'lib yetishishlariga xizmat qiladi. Musiqa va ma'naviyat tarbiyasi o'zaro bog'liq bo'lib, bolalarning shaxsiyati va ma'naviy rivojlanishida ajralmas o'rin tutadi, shuningdek, ularning kelajagi uchun mustahkam asos yaratadi.

REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 Yildagi 2022 — 2026-Yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Pf-60-Son Farmoni Farmoni www.lex.uz.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 2019-yil 19-mart kuni o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidagi "Yoshlarni ma'naviyatini yuksaltirish va ularning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish to'g'risida"gi ma'ruzasida belgilab berilgan vazifalar ijrosinita'minlash bo'yicha 5 ta muhim tashabbus. <https://www.pv.uz/uz/news/>
3. Sharipova G. Musiqa o'qitish metodikasi. Ma'ruzalar. T., TDPU, 2006.
4. M.S. Muxiddinova "Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida axborot-kompyuter texnologiyalarini musiqa tarbiyasi vositasi sifatida qo'llashning xususiyatlari" 2020 yil
5. O'zbekiston Respublikasi davlat "Maktabgacha ta'lim muassasasi to'g'risida" gi qonun. T 2007.
6. Maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablari. T 2012.
7. "Maktabgacha ta'lim to'g'risida" gi konsepsiya. T. "Fan va ta'lim" 2011.
8. A'zam Abduraximov Maktabgacha ta'lim muassasalarida musiqiy tarbiyaning ahamiyati // Osiyo san'ati Vol. 3 No. 1(2022) //